

## Buxoro viloyatida 2021- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

### Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -  
18995,6 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -  
136,4%**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **18995,6** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga ga nisbatan **136,4 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **11401,1** mlrd. so'm yoki **60,0 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **5372,0** mlrd. so'm, yoki **28,3 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **3044,5** mlrd. so'm, jami investitsiyalar-dagi ulushi **16,0 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **15951,1** mlrd. so'm, jami investitsiya-lardagi ulushi **84,0 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	18995,6	5,1	18,1	10,2	5,1	60,0	1,0	0,5
Buxoro sh	4145,7	6,1	27,9	8,7	5,6	48,8	0,4	2,5
Kogon sh	344,6	6,7	12,5	10,8	3,9	63,8	2,3	
Olot	1241,6	5,2	6,5	12,8	5,2	70,3		
Buxoro	1427,5	5,2	8,4	10,1	3,6	72,2	0,5	
Vobkent	509,0	4,5	5,0	19,8	6,7	62,3	1,7	
G'ijduvon	683,0	5,1	15,8	35,0	14,9	26,2	3,0	
Kogon	1779,6	3,5	6,4	7,6	6,9	74,7	0,9	
Qorako'l	430,7	15,3	22,0	34,7	9,9	16,8	1,3	
Qorovulbozor	699,7	2,0	34,5	2,3	2,1	57,5	1,6	
Peshku	438,9	9,9	7,7	37,7	4,2	38,5	2,0	
Romitan	6548,7	3,3	20,0	2,7	2,9	70,1	1,0	
Jondor	474,2	9,6	17,8	27,9	11,5	30,2	3,0	
Shofirkon	272,4	15,3	11,8	42,2	7,7	18,0	5,0	

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo`yicha tarkibi**

	Mird. so`m	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, %da
<b>Jami</b>	<b>18995,6</b>	<b>136,4</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan:</b>	<b>3044,5</b>	<b>73,6</b>	<b>16,0</b>
Respublika byudjeti	960,7	118,9	5,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	102,7	-	0,5
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	195,4	4,1 m.	1,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lган chet el kreditlari	1785,7	54,4	9,4
<b>Markazlashmagan:</b>	<b>15951,1</b>	<b>162,9</b>	<b>84,0</b>
Korxona mablag'i	3443,9	97,8	18,1
Aholi mablag'i	1928,1	108,1	10,2
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	9615,4	2,8 m.	50,6
Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari	963,7	93,0	5,1

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

### Markazlashgan



■ Byudjet mablag'lari


■ O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari

■ Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi


■ Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

### Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarning o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **8343,2** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **43,9** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **9542,1** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **50,2** % i) va boshqa xarajatlarga **1110,3** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **5,9** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar jamiga nisbatan ulushi, % da

- Qishloq, urmon va baliq xo'jaligi
- Tog-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo,motorli transport vositalarni tamirlash
- Tashish va saqlash
- Ta'lim
- Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish
- Uy-joy qurilish
- Boshqa faoliyat turlari




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridaagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **5451,2** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **28,7** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **16,0** % (yoki **3032,4** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **11,0** % (yoki **2084,1** mlrd. so'm), tashish va saqlashga **14,4** % (yoki **2741,1** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **8,2** % (yoki **1553,6** mlrd. so'm), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **7,8** (yoki **1485,0** mlrd. so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **3,0** % (yoki **566,8** mlrd. so'm), ta'limga **2,3** % (yoki **440,7** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo,motorli transport vositalarni tamirlashga **2,2** % (yoki **421,8** mlrd. so'm), qurilishga **1,9** %

(yoki **366,9** mlrd. so‘m), sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatishga **1,5** % (yoki **279,6** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **3,0** % (yoki **572,4** mlrd. so‘m) to‘g’ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida **11401,1** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **60,0** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **169,7** % ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **2123,2** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **18,6** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **9277,9** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **81,4** % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tog'-kon sanoatiga **4257,1** mlrd. so'm (yoki **37,3** %), ishlab chiqarish sanoatiga **2368,6** mlrd. so'm (yoki **20,8** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **1229,3** mlrd. so'm (yoki **16,7** %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **913,5** (yoki **8,0** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **324,3** mlrd. so'm (yoki **2,8** %), qurilishga **160,5** mlrd. so'm (yoki **1,4** %) va boshqa faoliyat turlariga **241,8** mlrd. so'm (yoki **2,2** %) to'g'ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To`g`ridan- to`g`ri investitsi- yalar	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo`lgan chet el kreditlari	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	11401,1	1749,0	1785,7	7866,4
Buxoro sh.	2022,7	143,5	1135,2	744,0
Kogon sh.	220,0	179,5	22,2	18,3
Olot	871,8	146,0	598,7	127,1
Buxoro	1032,2	871,9	0,5	159,8
Vobkent	316,8	31,5	1,6	283,7
G`ijduvon	179,1	2,1	1,4	175,6
Kogon	1330,2	77,1	7,4	1245,7
Qorako'l	72,7	4,5	13,9	54,3
Qorovulbozor	402,4	20,0	0,4	382
Peshku	168,8	45,5	0,8	122,5
Romitan	4591,5	143,2	2,1	4446,2
Jondor	143,9	62,4	0,9	80,6
Shofirkon	49,0	21,8	0,7	26,5

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **6548,7** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **124,9 %** tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro shahri egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **4145,7** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **133,4 %** ni tashkil qildi. Kogon tumani **1779,6** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu tumanda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **2,6 m.** ni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami</b>	<b>9681,7</b>	<b>134,6</b>
Buxoro sh	14664,5	132,4
Kogon sh	5567,5	95,8
Olot	12329,3	125,8
Buxoro	8372,4	173,6
Vobkent	3571,9	148,2
G'ijduvon	2206,8	87,5
Kogon	22189,4	2,5 m.
Qorako'l	2590,1	103,3
Qorovulbozor	37219,5	3,0 m.
Peshku	3494,1	133,4
Romitan	45132,6	122,7
Jondor	2665,7	111,9
Shofirkon	1510,6	109,5

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Romitan tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **45132,6** ming so'mni, o'sish sur'ati **122,7** % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **37219,5** ming so'mni, o'sish sur'ati **3,0 m.** ni tashkil qildi. Kogon tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **22189,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **2,5 m.** ni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni **1331,8** ming kv.m. bo'lgan **7461** xonadonli **5559** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,5** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **989,9** ming kv.m bo'lgan **4462** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %**) Turar-joylarni qurilishiga **1535,9** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi